



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'Ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	



FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA O'QUVCHILARDA IQTISODIY BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

J. M. Fayzullayev

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Magistratura bo'lim boshlig'i i.f.f.d (PhD), v.b.dotsent

Ortiqova E'zoza Olimjon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida fanlararo integratsiya tamoyili asosida o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Iqtisodiy tushunchalarni matematika, ona tili, tarix va geografiya fanlari mazmuniga singdirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida integratsion yondashuvning o'quvchilar mantiqiy fikrlashi va resurslarni boshqarish ko'nikmalariga ta'siri yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: didaktik sinteziya, kognitiv integratsiya, iqtisodiy determinizm, transdisiplinar yondashuv, o'quv mnemoteknikasi, pragmatik kompetensiya, ijtimoiy-iqtisodiy adaptivlik.

Abstract: This article explores the pedagogical mechanisms for enhancing the economic literacy of secondary school students based on the principle of interdisciplinary integration. The possibilities of embedding economic concepts into the content of mathematics, native language, history, and geography are analyzed through the lenses of "didactic synthesis" and a "transdisciplinary approach." The study highlights the impact of an integrative approach on students' logical thinking and resource management skills.

Key words: didactic synthesis, cognitive integration, economic determinism, transdisciplinary approach, educational mnemonics, pragmatic competence, socio-economic adaptability.

Аннотация: В данной статье исследуются педагогические механизмы повышения экономической грамотности учащихся общеобразовательных школ на основе принципа междисциплинарной интеграции. Анализируются возможности внедрения экономических понятий в содержание математики, родного языка, истории и географии на основе "дидактической синтезы" и "трансдисциплинарного подхода". В ходе исследования освещается влияние интегративного подхода на логическое мышление и навыки управления ресурсами учащихся.

Ключевые слова: дидактическая синтеза, когнитивная интеграция, экономический детерминизм, трансдисциплинарный подход, учебная мнемотехника, прагматическая компетенция, социально-экономическая адаптивность.

KIRISH

Global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri - shaxsni bozor munosabatlariga moslashgan, mustaqil qaror qabul qila oladigan va moliyaviy resurslarni boshqarish qobiliyatiga ega etib tarbiyalashdir. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri - shaxsni bozor munosabatlariga moslashgan, mustaqil qaror qabul qila oladigan va moliyaviy resurslarni boshqarish qobiliyatiga ega etib tarbiyalashdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, o'quvchilarda amaliy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari alohida ta'kidlangan. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimida iqtisodiy bilimlarni berish faqatgina nazariy tushunchalarni yodlatish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Mavjud pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy ta'limni alohida va yopiq fan sifatida o'qitish o'quvchida bilimlarning tarqoqligiga va ularni hayotda qo'llash imkoniyatini pasayishiga olib keladi.

Ushbu muammoning optimal yechimi sifatida fanlararo integratsiya tamoyili namoyon bo'ladi. Integratsion yondashuv o'quv fanlari orasidagi sun'iy chegaralarni bartaraf etib, o'quvchi ongida dunyoning yaxlit iqtisodiy

manzarasini yaratishga xizmat qiladi. Bu jarayonda biz taklif etayotgan transdisiplinar yondashuv va didaktik sinteziya tushunchalari muhim o'rin tutadi. Ular o'quvchiga matematika darsidagi raqamni - iqtisodiy foyda sifatida, geografiyadagi resursni - bozor qiymati sifatida, ona tilidagi matn - ishbilarmonlik aloqasi vositasi sifatida idrok etish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, fanlararo integratsiya mexanizmlari orqali o'quvchilarda kognitiv integratsiya jarayonini faollashtirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy adaptivlikka tayyorlash va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asoslab berishdan iboratdir. Iqtisodiy determinizm tamoyili asosida qurilgan ta'lim mazmuni o'quvchini nafaqat bilimli, balki bozor munosabatlariga moslashgan, raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashning eng samarali vositasidir.

Fanlararo integratsiya - bu shunchaki o'quv fanlarini birlashtirish emas, balki o'quvchi ongida dunyoning yaxlit iqtisodiy manzarasini shakllantirishdir. Iqtisodiy bilimlarni fanlararo asosda berish o'quvchilarda iqtisodiy determinizm tamoyili asosida fikrlashni shakllantiradi. Bu jarayon didaktik sinteziya hodisasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchi turli fanlardan olgan bilimlarini yagona iqtisodiy maqsad yo'lida sintez qila oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, fanlararo integratsiya zamonaviy ta'limning muhim pedagogik tamoyillaridan biri sifatida o'quvchilarda iqtisodiy tafakkur va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilar integratsion yondashuv orqali o'quvchilarning turli fanlardan olgan bilimlarini yagona tizimga birlashtirish, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishni asoslab berganlar.

Ilmiy manbalarda transdisiplinar yondashuv o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishda samarali metod sifatida talqin qilinib, matematika, geografiya, tarix va ona tili fanlari bilan iqtisodiy bilimlarni uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlangan. Ayniqsa, kognitiv integratsiya va didaktik sinteziya tushunchalari o'quvchi ongida bilimlarning yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Shuningdek, mavjud tadqiqotlarda iqtisodiy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog'lash, pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda iqtisodiy determinizm tamoyili asosida o'quvchilarning bozor munosabatlariga moslashuvchanligini oshirish masalalari keng yoritilgan. Tajriba-sinov natijalari fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy adaptivligini sezilarli oshirishini ko'rsatgan.

Tadqiqot jarayonida kognitiv integratsiya va transdisiplinar yondashuv tamoyillariga tayanildi. Transdisiplinar yondashuv o'quv fani doirasidan chiqib, real hayotiy muammolarni fanlararo yechish imkonini beradi. Masalan, maktab bitiruvchisining kundalik ehtiyojlarini qoplash uchun zarur bo'lgan moliyaviy hisob-kitoblar faqat matematika emas, balki ijtimoiy ehtiyoj (tarix), bozor talabi (geografiya) va huquqiy savodxonlikni talab etadi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-tarkibiy yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari tanlab olindi. Fanlararo integratsiya shunchaki axborotlarni birlashtirish emas, balki ta'lim mazmunini o'quvchining kognitiv rivojlanish bosqichlariga mos ravishda transformatsiya qilish jarayonidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

1. **Abstrakt-mantiqiy tahlil:** Iqtisodiy tushunchalarning boshqa fanlar tarkibidagi o'rnini aniqlash va ularning o'zaro bog'liqlik modellarini yaratish uchun.
2. **Modellashtirish:** "Integratsion dars modullari"ni loyihalash va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun.
3. **Pedagogik diagnostika:** O'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini aniqlash uchun test, so'rovnoma va amaliy keys topshiriqlari.
4. **Matematik-statistika (Student t-mezonlari):** Eksperiment natijalarining ishonchligini va nazorat hamda eksperimental guruhlar orasidagi farqni ilmiy tasdiqlash uchun.

Nazariy tahlil: Kognitiv integratsiya va didaktik sinteziya

Nazariy tahlil jarayonida "integratsiya" tushunchasi mazmunan kengaytirildi. An'anaviy pedagogikada fanlararo bog'lanish ko'pincha yuzaki xarakterga ega bo'lib, u faqat bitta fan doirasida boshqa fanga oid misol keltirish bilan cheklanadi. Biz taklif etayotgan modelda esa kognitiv integratsiya markaziy o'rinni egallaydi.

Kognitiv integratsiya - bu o'quvchi miyasida turli fanlardan olingan bilimlarning "fayllar" ko'rinishidagi tarqoqligiga barham berishdir. Masalan, o'quvchi matematikadagi "foiz" tushunchasini o'rganayotganda, uning ongida bu tushuncha darhol "inflyatsiya", "bank stavkasi" yoki "foyda marjasi" kabi iqtisodiy tushunchalar bilan sintezlanishi kerak. Bu jarayonni biz didaktik sinteziya deb ataymiz.



Transdisiplinar yondashuvning pedagogik mexanizmi

Tadqiqotimizda transdisiplinar yondashuv iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishning asosiy drayveri sifatida belgilandi. Bu yondashuvning mohiyati shundaki, o'quv muammosi birorta fan chegarasida qolib ketmaydi. Metodik modelimiz quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Muammoni shakllantirish (Problem Posing):** Masalan, "Oila budjetini 1 oy davomida qanday qilib 10% ga tejash mumkin?".
2. **Fanlararo qidiruv:** Matematika (hisob-kitob), Biologiya (iste'mol normalari), Geografiya (mahalliy resurslar va narxlar), Ona tili (tejamkorlik haqidagi maqollar va matn tahlili).
3. **Yechimni sintez qilish:** O'quvchi barcha fanlardagi bilimlarni birlashtirib, o'zining shaxsiy iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlilimizda iqtisodiy determinizm tamoyiliga alohida urg'u berildi. Pedagogik nuqtayi nazardan, bu tamoyil ta'lim mazmuni jamiyatning iqtisodiy talablariga mos kelishi kerakligini anglatadi. Agar o'quvchi maktabda o'rganayotgan nazariyasi (masalan, logarifm yoki tarixiy sanalar) uni ertaga bozor sharoitida raqobatbardosh qilmasligini his qilsa, uning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi pasayadi. Fanlararo integratsiya esa har bir akademik bilimning "iqtisodiy qiymati"ni ko'rsatib beradi.

Ushbu metodologik asoslar Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti sifatida olib borayotgan tadqiqotimizning ilmiy poydevorini tashkil etadi va tajriba-sinov ishlari uchun nazariy yo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

O'quv mnemotexnikasi usuli iqtisodiy terminologiyani o'zlashtirishda samarali natija berdi. Bu usul orqali o'quvchilar murakkab iqtisodiy tushunchalarni vizual tasvirlar va mantiqiy bog'liqliklar orqali xotirada saqlab qoladilar. Pragmatik kompetensiya esa olingan nazariy bilimlarni amaliyotda, ya'ni shaxsiy budjetni rejalashtirish yoki kichik biznes loyihasini tuzishda qo'llash imkonini yaratadi.

Fanlar kesimida integratsiyalashgan ta'lim modeli

1. **Matematika:** Foizlar mavzusi o'tilayotganda bank omonatlari, kredit foiz stavkalari va inflyatsiya darajasini hisoblash kabi amaliy keyslar tahlil qilinadi. Bu o'quvchida raqamli iqtisodiyot ko'nikmalarini shakllantiradi.
2. **Geografiya:** Dunyo bozorlari va xalqaro savdo aloqalari mavzusida eksport-import balansini tahlil qilish, tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishning iqtisodiy foydasini baholash ko'zda tutiladi.
3. **Ona tili va adabiyot:** Ishbilarmonlik muloqoti, reklama matnlarini tuzish, iqtisodiy terminlar bilan ishlash nutq madaniyati va iqtisodiy savodxonlikni birlashtiradi.

Tajriba-sinov ishlari va natijalar tahlili

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida eksperimental guruhlarda o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan 28 foizga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy adaptivlik darajasi esa kognitiv integratsiya metodikasi qo'llanilganda sezilarli darajada o'sdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fanlararo integratsiya asosida o'qitilgan o'quvchilar nafaqat iqtisodiy terminlarni yaxshi biladilar, balki ularni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llashga, resurslarni oqilona taqsimlashga va kreativ yondashuvga ko'proq moyil bo'ladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fanlararo integratsiya - zamonaviy ta'limning uzviy qismi bo'lib, u o'quvchini jamiyatdagi murakkab iqtisodiy munosabatlarga tayyorlaydi. O'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish uchun darsliklar mazmuniga amaliy yo'naltirilgan integratsion modullarni kiritish lozim.

O'qituvchilarning integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bo'yicha metodik tayyorgarligini oshirish, darslarda raqamli texnologiyalar va keys-stadilardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa ta'limning samaradorligini va o'quvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Fanlararo integratsiyaning metodologik zarurati: Bugungi shiddatli iqtisodiy o'zgarishlar davrida o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni faqatgina alohida fan (masalan, "Iqtisodiyot alifbosi") doirasida berish yetarli emasligi ma'lum bo'ldi. Iqtisodiy tushunchalarni matematika, geografiya va ona tili kabi fundamental fanlar mazmuniga singdirish orqali biz o'quvchida dunyoning yaxlit iqtisodiy manzarasini shakllantirishga erishdik. Bu esa ta'limning shunchaki nazariya emas, balki hayotiy zaruriyat ekanligini isbotlaydi.

Kognitiv rivojlanish samaradorligi: Tadqiqot davomida qo'llanilgan kognitiv integratsiya va didaktik sinteziya usullari o'quvchilarning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirdi. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, fanlararo bog'liqlik asosida dars o'tilgan guruhlarda o'quvchilarning iqtisodiy muammolarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari an'anaviy guruhlarga nisbatan 30-35 foizga yuqori bo'ldi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy adaptivlik darajasi oshganidan dalolat beradi.

Pragmatik kompetensiyaning shakllanishi: Fanlararo yondashuv o'quvchida nafaqat terminologik bilimni, balki pragmatik kompetensiyani - ya'ni olingan bilimni real hayotda (oilalarning budjetini tejash, resurslarni boshqarish, kichik biznes g'oyalarni generatsiya qilish) qo'llash qobiliyatini yuzaga keltirdi. Matematik hisob-kitoblar iqtisodiy foyda bilan, geografik bilimlar esa bozor imkoniyatlari bilan sintez qilinishi o'quvchi tafakkurida "iqtisodiy determinizm" tamoyilini mustahkamlaydi.

Tavsiyalar:

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

1. Umumta'lim maktablari darsliklarini qayta ko'rib chiqishda har bir fanning iqtisodiy imkoniyatlarini ochib beruvchi integratsion bloklar va amaliy keyslarni ko'paytirish;
2. O'qituvchilarning fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish bo'yicha metodik tayyorgarligini oshirish maqsadida maxsus "Kross-kurrikulyar pedagogika" seminar-treninglarini tashkil etish;
3. O'quvchilarda iqtisodiy intuitsiyani rivojlantirish uchun dars jarayoniga raqamli iqtisodiyot simulyatsiyalari va transdisiplinar loyiha ishlarini keng joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2021.
2. Yo'ldoshev J.G'. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.: 2018.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: 2005.
4. Safarova R.G'. Fanlararo integratsiyaning didaktik asoslari. - T.: 2012.
5. UNESCO Reports on Education for Sustainable Development. 2024.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.